

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

“MARKETING” KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 6II9.8:659.1

TOVMIRZAYEV TO'LQINJON KAMOLIDDIN O'G'LI

**CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA REKLAMA FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**70412601 – Savdo ishi (turlari bo'yicha)
mutaxassisligi bo'yicha**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: I.f.f.d. Jalilov J.G'.

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Marketing" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

5-sonli bayonnoma "28" aprel 2023 y.

Kafedra mudiri: I.f.d.p Ergashxodjayeva Sh.Dj.

Imrul 27.04.23y.
imzo sana

Ilmiy rahbar: I.f.f.d. Jalilov J.G'.

Imrul 25.04.23y.
imzo sana

Magistr: Tovmirzayev T.K.

Tovmirzayev 24.04.23y.
imzo sana

Dissertatsiya "Xalqaro turizm" fakultetida 2023 yil "01" "05"

№ 5 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Fakultet dekani

Zufarova N.G.

ANNOTATSIYA

Chakana savdoda iste'molchilarga qulay muhit yaratish va ularni jalb qilishda reklama faoliyatini samaradorligini oshirish bugungi kunda dolzarb mavzulardan biriga aylanib bormoqda. Shu muammolarni bartaraf etish maqsadida tadqiqot davomida mavzu doirasida keng ko'lamli o'rganildi. Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan chakana savdo korxonalarini rivojlantirishda reklamadan samarali foydalanish doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, mahalliy MDH mamlakatlari va xorijiy mamlakatlar olimlari, tadqiqotchilari qarashlari batafsil o'rganib chiqildi hamda mavzuga oid mamlakatimizdagi me'yorih hujjatlar tahlil qilindi va adabiyotlar sharxi keltirib o'tildi. Tadqiqot ishining amaliy ahamiyatini oshirish uchun mamlakatimizdagi chakana savdo korxonalarini faoliyati va ular faoliyatida qo'llanilayotgan reklama kampaniyalari holati statistik ma'lumotlar asosida tahlil usullari yordamida o'rganildi. Bundan tashqari ushbu yo'nalish bo'yicha xorijiy mamlakatlar orttirgan tajribalari ham o'rganib chiqildi. O'rganilgan ma'lumotlar asosida chakana savdo korxonalarini faoliyatini reklama tadbirlari asosida takomillashtirish choralari bo'yicha nazariy va amaliy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

***Kalit so'zlar:** Chakana savdo, ulgurji savdo, savdo aylanmasi, chakana savdoda reklama.*

Summary

Creating a comfortable environment for consumers in retail trade and increasing the effectiveness of advertising activities in attracting them is becoming one of the major topics today. In order to eliminate these problems, the topic is extensively studied during the research. In particular, the research conducted on advertising activities in retail enterprises, the opinions of local and foreign scientists and researchers were studied, and local normative documents on the topic were studied and a review of the literature was presented. In order to increase the practical value of the research work, the activity of retail enterprises in our country and the state of the advertising campaigns used in their activity were studied using analytical methods based on statistical data. In addition, foreign experiences in this field were also studied. On the basis of the studied information, scientifically and practically based proposals and recommendations were developed on measures to improve the activities of retail enterprises based on advertising activities.

Key words: Retail trade, wholesale trade, trade turnover, advertising in retail trade.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro`yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro`yxati.....	7
I BOB. KIRISH	8
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	8
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	9
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
1.4. Tadqiqot ob`ekti va predmeti.....	11
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	11
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	13
2.1. Kirish.....	13
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	13
2.3. Mahalliy me`yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	26
III BOB. METODOLOGIYA.....	33
3.1. Tadqiqot dizayni.....	33
3.2. Ma`lumotlarni to`plash jarayoni.....	33
3.3. Tahlil uchun qo`llaniladigan usullar.....	34
3.4. Tadqiqotni o`tkazish uchun zarur sharoitlar.....	34
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning echimi.....	34
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	35
IV BOB. CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA REKLAMA FAOLIYATINING TAHLILI VA NATIJALARI.....	36
4.1. Samarqand viloyatida faoliyat ko`rsatuvchi chakana savdo korxonalarining faoliyati tahlili.....	36
4.2. Samarqan viloyatida faoliyat yuritayotgan chakana savdo korxonalarining reklama faoliyati tahlili.....	40
4.3. Samarqand viloyatidagi chakana savdo korxonalarida faoliyatida reklamadan foydalanish holatining SWOT tahlili.....	48
V. BOB. XULOSA.....	52
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	54

I. KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida chakana savdo faoliyatini rivojlantirish aholiga sifatli savdo xizmat ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chakana savdo tarmog'ida tovarlarning reklamasi ko'pincha mahalliy bozorlarga yo'naltiriladi. Bunday reklamalar bozorlarning maqsadli auditoriyasiga qaratilgan bo'lib mintaqaviy, milliy va hatto xalqaro bozorlar foydalanishi imkoniyatini beradi. Chakana sotuvchilarning xilma-xilligi va xaridorlarga taqdim etilayotgan tovarlarning eng keng assortimenti bilan ularning faoliyatining umumiy xususiyati asosiy e'tiborni qaratadi. Chakana savdoda reklamani xususiyatlari uning oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradi va ular aylanmani saqlash va ko'paytirish, shuningdek, yangi mijozlarni jalb qilish, mavsumiy talabning daromadga ta'sirini kamaytirish, sotiladigan tovarlarga va xizmatlarga nisbatan ijobiy munosabatlarni shakllantirishdan iborat bo'ladi. Chakana savdo reklamasi xaridorlarga eng mos keladigan chakana savdo nuqtasini tanlashga yordam beradi. Muayyan savdo nuqtasiga raqobat ustunlikni beradigan asosiy omillar sifatida taklif etilayotgan tovarlar assortimentining xilma-xilligi, qulay ish rejimi, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish tizimining mavjudligi, ayrim toifalarga chegirmalar taqdim etilishi ko'rishimiz mumkin. Chakana savdoda reklamasi xaridorlarga raqobatbardosh narxlarni belgilash, loyihalashda zamonaviy dizayndan foydalanish, tovarlar sotiladigan joyning qulayligi, avtoturargohning mavjudligi, malakali maslahat olish imkoniyati, xaridorlarga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlarni etkazib beradi.

Chakana savdoda reklama ko'p jihatdan reklama ob'ektining xususiyatlariga bog'liq. Chakana savdodagi reklamalarga mahsulotlar, xizmatlar, korxonalar reklamasi, savdo nuqtalarida tashkil etilgan turli xil aksiyalar kiradi. Mahsulot reklamasi ma'lum bir mahsulotni tanishtiradi, xaridorni do'konga kelishga va uni sotib olishga undaydi. Bunday reklama bir vaqtning o'zida do'kon obro'sini yaratish